

**TOSHKENT SHAHRIDA TURISTIK HUDUDLARNI TASHKIL ETISH
MUAMMOLARI (ESKI SHAHAR MISOLIDA)**

Talipov M.A

Rahbar: Professor.

Azlarov A.A

Magistrant Toshkent Kimyo Xalqaro Unversiteti

Annotatsiyasi: *Ushbu maqolada Eski shahar hududi aholisining turmush tarzi, urf-odatlari va an'analari haqida, hududning tarixi, milliy hunarmandchilik an'analari, Eski shahar hududini saqlab qolish va rekonstruksiya qilish orqali hudud aholisining turmush sharoitlarini hozirgi zamon talablariga mos ravishda yaxshilash va turistik hudud tashkil etish loyihasi haqida ma'lumot berilgan.*

Kalit so'zlar: *Eski shahar, mahalla, turmush tarzi, milliy hunarmandchilik va urf-odatlar, an'analalar, rekonstruksiya, turist.*

**ПРОБЛЕМЫ ОРГАНИЗАЦИИ ТУРИСТИЧЕСКИХ ЗОН В ГОРОДЕ ТАШКЕНТЕ
(НА ПРИМЕРЕ СТАРОГО ГОРОДА)**

Талипов.М.А

Руководитель: профессор

Азларов А.А

Магистрант: Ташкентский Международный Унверситет Кимё

Аннотация: *В данной статье, даны сведения об образе жизни и традициях жителей Старого города, истории района, традициях национальных ремесел, сохранении и реконструкции Старого города, улучшении условий жизни жителей территории в соответствии с современными требованиями также сведения о проекте создания туристической зоны.*

Ключевые слова: *Старый город маҳалля, образ жизни, национальные ремесла и обычаи, традиции, реконструкция, турист.*

**PROBLEMS OF ORGANIZING A TOURIST AREA IN THE CITY OF TASHKENT (
IN THE CASE OF THE OLD CITY)**

Talipov M.A

Leader: professor

Azlarov A.A

Magistrant: Kimyo International University In Tashkent

Annotation: In this article, there is information about the lifestyle and traditions of the residents of the Old city, the history of the area, the national craft traditions, the preservation and reconstruction of the Old city, the improvement of the living conditions of the residents of the area in accordance with the requirements of the present, and information about the project of establishing a tourist area given.

Key words: Old City, neighborhood, lifestyle, natinal crafts and customs, traditions, reconstruction, tourist.

KIRISH

Eski shahar Toshkentning shimoliy-g'arbidagi tarixiy qismi bo'lib, Chor Rossiyasi tomonidan bosib olingunga qadar (1865 yilgacha) uning hududini tashkil qilgan. Eski shahar nomi Toshkentda yangi Shahar vujudga kelgandan so'ng ishlataladigan bo'ldi.^[1] Eski shahar hududi katta maydonni ishg'ol qilib, shimoldan "Kaykavus" kanali, sharqdan "Anhor" kanali, g'arbdan "Ko'kcha" kanali, janubdan "Zah" kanali bilan chegaralangan.¹⁷ So'nggi yillarda mamlakatimizda shaharsozlik va arxitektura sohasida jadal o'zgarishlar yuz bermoqda. Vatanimiz va chet el tajribasini o'r ganib chuqur tahlil qilgan holda ko'plab yangi bino va inshootlar hamda shaharsozlik ob'yektlari barpo etilmoqda. Tarixda bu sohada ajdodlarimiz bizga qoldirgan boy merosdan unumli foydalanib va hozirgi zamon talablari bilan uyg'unlashtirib loyihalarni yaratish davr talabi bo'lib qolmoqda. Misol qilib aytadigan bo'lsak, Toshkent shahrining Eski shahar hududi Chuvalachi mahallasidagi turar joylarning me'moriy-rejaviy yechimi mamlakatimiz hududining tabiiy-iqlimi sharoitlarini va xalqning turmush tarzini hisobga olgan holda shakllanganini ko'ramiz. Hozirgi kunda an'anaviy yechimlardan unumli foydalanib, Eski shahar hududini rekonstruksiya qilish va saqlab qolish tamoyillarini ishlab chiqish, avvalambor, hududdagi mahalliy aholi uchun imkon darajasida yashash uchun qulay sharoit yaratib, chet eldan kelgan sayyoohlarga o'zbek xalqining turmush tarzi, urf-odatlari va an'analari haqida ma'lumot berish rejalashtirilgan.

ASOSIY QISM

So'nggi yillarda turizmni rivojlantirishga davlat darajasida katta e'tibor berilmoqda. O'zbekiston Respublikasi vazirlar mahkamasining 2020-yil 10-iyuldag'i 433-soni qarorida O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish chora tadbirlari to'g'risidagi qaroriga¹⁸ asoslanib Eski shahar hududini saqlab qolish va rekonstruksiya qilib turistik maqsadlarda foydalanish masalasini dolzarb qilib qo'ymoqda.^[2] Chet el tajribasiga qaraydigab bo'lsak turistik markazlar tashkil etish bo'yicha loyihaviy takliflar ishlab chiqilganini ko'ramiz. Turkiyaning Kapadokiya shahrida tog'lar ichiga turli hil do'konlar, kafe va mehmonxonalar barpo etib turizm sohasini rivojlantirmoqdalar. Ozarbayjon davlatining poytahti Baku shahrining "Icherisheher" hududida o'z milliy qadriyatlarini

¹⁷ Toshkent Ensiklopediya . Toshkent; 1992 yil. 406-bet

² Lex.uz O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2020-yil 10-iyuldag'i 433-soni qarori.

ulug'lagan holda hudud barpo etib, aholisi uchun qulay yashash sharoitlarini yaratish bilan birga turistlar uchun ham qiziqarli muhit yaratilganini ko'ramiz. Bunday holatni boshqa davlatlarda ham uchratshimiz mumkin. Samarqand, Buhoro va Xiva shaharlarida asrlar davomida saqlanib kelgan tarixiy inshootlardan turizm sohasida foydalanib kelinmoqda. Biroq Eski shahar hududlarida chet el tajribalaridan ilhomlanib, turizm sohasida foydalanishimiz mumkin bo'lgan hududlar mavjud. Toshkent shahridagi Eski shahar mahallalari qadimdan shakllanib kelgan bo'lib, XIV-XX asrlarga oid bino va inshootlardan tashkil topgan. Ko'pgina yirik mahalla hududlarida qadimiy ob'yektlar joylashganini kuzatishimiz mumkin. Ular masjidlar, madrasalar, maqbaralar, minora va xonaqohlar ko'rinishida namoyon bo'ladi. Eski shahar mahallasi an'anaviy turar-joylar, tor va mahaliy til bilan aytganda, "jin ko'chalar"dan iborat. Bunday ko'chalar yuzasida daraxt yoki yashil hududlarni uchratishimiz qiyin. Shunga qaramasdan, ko'chaning u yoki bu qismi soyali hududni tashkil etadi. Shu bilan birga tor ko'chalardan, bir-ikki qavatlari pastqam uylar orasidan mahalla guzari tomonga harakatlansak, mahalla guzarining ahamiyatini, unda joylashgan bino va inshootlarning ko'rki va salobatini sezmasdan ilojimiz yo'q.¹⁹ Turar-joy binolarining hovli maydonlari kichik bo'lganligi sababli xonadonlar bir-biriga yaqin joylashgan.[3] Eski shaharni rekonstruksiya qilish jarayonida qisman yoki to'liq qayta barpo etilgan turar joy va jamoat binolarini saqlab qolgan holda hamda yaroqsiz holga kelib qolgan binolardan hududni tozalab, ular o'rniga ushbu hududda zarur bolgan milliy taomlar bilan, oziq-ovqatlar bilan, yodgorliklar bilan savdo qiluvchi shahobchalarni, shuningdek, sartaroshxona, choyxona, hunarmandchilik ustaxonalar kabi obyektlarni joylashtirish orqali eski shahar hududida turistik mahallani shakllantirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Eski shahar hududida barpo etilishi mo'ljallanayotgan turistik mahalla kelgusida ushbu hududda joylashgan mehmon uylarida turistlarning yashashi va mavjud turistik infrastruktura ob'yektlaridan unumli foydalangan holda vaqtini unumli o'tkazishi, mamalakatimiz va xalqimiz hayoti haqida, imkon darajasida, to'liq ma'lumot olib, ushbu hududda turistlarning ko'proq vaqt bo'lishini ta'minlash muhim masala hisoblanadi. Mahalla tushunchasi mutaxassis arxitektor va shaharsozlar jamoasiga ijtimoiy hayot shakli tarzida yaxshi tanish bo'lsa-da xalqaro madaniyat arenasida bu juda ham kam taqdim etilgan. Ko'p yillar davomida mahallalar ma'lum bir jamoaviy hayot tarzi sifatida rivojlanib kelgan. Mahalla, tegishlicha, shahar hamjamiyati va uning arxitekturasining uyg'unlashgan ko'rinishidir.[4] "Mahalla" arab tilidan olingan bo'lib "qo'shnichilik" deb tarjima qilinadi hamda dastlab oilaviy, kasbiy yoki etnik aloqalar bilan birlashtirilgan insonlarning norasmiy jamoalarini anglatgan.²⁰ So'nggi yillarda Eski Shahar hududini saqlab qolish, rekonstruksiya qilish va turistik maqsadlarda foydalanishga bag'ishlangan ko'plab davra suhbatlari, seminar va konferensiylar bo'lib o'tmoqda. Arxitektorlar, shaharsozlar tomonidan turli taklif va g'oyalari ilgari surilmoqda.

¹⁹“Сохранение исторического наследия: приоритет культуры над цивилизацией” Toshkent. 2023-yil 57-58-bet. Talipov. M.A., Tulkunov O.A.

²⁰]“Сохранение исторического наследия: приоритет культуры над цивилизацией” Toshkent. 2023-yil 58-bet Talipov. M.A., Tulkunov O.A.

Ayrimlar Eski shaharni butunlay buzib tashlab, o'rnida zamonaviy binolar qurishni taklif etsa, boshqalar Eski Shahar hududini kelajak avlodlarga meros tariqasida qoldirishni yoqlab chiqmoqdalar. Har ikki tomonning argumentlari mavjud. Buzib tashlash tarafdorlari, asosan, uylarning chidamsiz qurilish materiallari, ya'ni xom g'isht, guvala, paxsadan barpo etilgani sabab ularni uzoq yillar davomida saqlab turishning iloji yo'qligini iddao qilayotgan bo'lalar, Eski shaharni saqlab qolish tarafdorlari nurab qolgan binolarning o'rniga hududning me'moriy-rejaviy yechimiga putur yetkazmaydigan yangi bino qurish orqali rekonstruksiya ishlari olib borishni taklif etmoqdalar.

Chet el tajribasiga nazar tashlasak, Ozarbayjon, Turkiya, Gretsiya davlatlarining tarixan shakllangan shaharlarida bizning Eski shaharga o'xshash turar joy hududlari mavjud bo'lib, ularni saqlab qolish va turistik mahallalar sifatida ulardan foydalanish bo'yicha juda qiziqarli yechimlar mavjudligining guvohi bo'lamiz (1,2,3,4-rasmlar).



1-rasm

2-rasm

Xorij shaharlarida mahallaning asosiy piyodalar harakatlanadigan ko'chalarida hunarmandlar ustaxonalari, yodgorliklar do'konlari, kichik tamaddixonalar va mehmon uylari joylashganini ko'ramiz. Uylar o'z tarixiy shakli-shamoyilini o'zgartirmagan holda ta'mirlangan. Ko'chalarda avtomobil harakati cheklangan. Ko'chalar tor va ularda suv ta'minoti mavjud emasligi sababdan ko'kalamzor hududlarga ega emas. Ammo, binolar oldida konteynerlarga ekilgan kichik xajmli daraxtlar va butalarni, uylarning derazalarida tuvaklarga ekilgan turfa gullarni har qadamda uchratamiz. Bu ko'chalarga o'zgacha fayz baxsh etadi.

²¹ 1-rasm, 2-rasm. Pinterst saytidan olingan.



3-rasm



4-rasm

22

Buhoroning ayrim ko'chalari ham turistlar uchun mehmonxona, ovqatlanish muassasalari , esdaliklar sotib olish xizmatlarini taklif etuvchi ob'yektlar bilan ta'minlangan. Mehmonlar, aynan, Eski shahar muhitini to'laqonli xis qilishi uchun xam aynan shu hududlarda to'xtashni ma'qul ko'radilar(5,6-rasmlar).



5-rasm



6-rasm

Toshkentga qaytadigan bo'lsak, bu yerda holat o'zgacha. Toshkentning Eski Shahar qismidagi aksariyat uylar bevosita uy egalarining ehtiyojlariga xizmat qiladi. Bu, tashqaridan qaraganda ham, tabiiy ko'rindi. Haqiqiy o'zbek mahallasidagi hayotini aynan shu hududlarda xis etishimiz mumkin. Mahalla guzarlari, tor ko'chalar, bolxona va dalonli kam qavatli turar uylar, mahalla masjidi, otalar choyxonasi, sartaroshxona, mahalla idorasi, oziq-ovqat do'konasi Toshkent Eski shahar mahallasining asosiy tashkil etuvchilaridir.(7,8,9,10-rasmlar). Ushbu tuzilmaga putir yetkazmagan holda mahalla hududini rekonstruksiya qilish, aholiga qulay yashash sharoitlarini yaratib berish orqali "muzey-mahalla"ni emas, hayot qaynayotgan jonli mahallani shakllantirish asosiy maqsad bo'lib qolmog'i kerak.

²² 3-4-rasmlar www. Arxitektura_olam. saytidan olingan.



7-rasm



8-rasm




9-rasm



10-rasm



11-rasm



12-rasm

XULOSA

Toshkentda so'nggi yillarda olib borilayotgan bunyodkorlik ishlari davr talabi va bu ishlar me'yorlarga amal qilgan holda amalga oshirilsa, maqsadga muvoffiq bo'lishi shubhasiz. Ammo, Eski shahar hududiga solinayotgan tahdidni, kamida, asrlar davomida shakllangan noyob merosga o'ta mas'uliyatsizlik va e'tiborsizlik bilan yondashuv deb baholanmog'i lozim. Eski shaharni kelgusi avlodlarga shaharsozlilikning va xalq me'morchiligining durdonasi sifatida avaylab-asrab yetkazish nafaqat soha

mutaxassislarining va mutasaddilarning, balki butun jamoatchilikning diqqat e'tiborida bo'lmg'i lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI VA INTERNET MANBALARI:

1. Toshkent ensiklopediya. Toshkent 1992-yil. 406-bet.
2. Lex.uz O'zbekiston Respublikasining vazirlar mahkamasining 2020-yil 10-iyulda 433-sonli qarori.
3. . Talipov. M.A., Tulkunov O.A.“Сохранение исторического наследия: приоритет культуры над цивилизацией” Toshkent. 2023-yil 57-58-bet.
4. . Talipov. M.A., Tulkunov O.A. “Сохранение исторического наследия: приоритет культуры над цивилизацией” Toshkent. 2023-yil. 58-bet
5. www.Pinterst.uz
6. www.Arxeatura_olam.com